

MINTAQA HUDUDLARIDA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘LLARI

*Karimov Shaxbozxo‘ja Xamdamjon o‘g‘li,
o‘qituvchi,
Farg‘ona davlat universiteti,
karimovshahboz417@gmail.com,
+998901199994*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonning mintaqaviy hududlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishning istiqbolli yo‘llari o‘rganiladi. O‘zbekistonning turli hududlarida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda davlat tomonidan taqdim etilayotgan turli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, soliq imtiyozlari, moliyaviy ko‘maklar, infratuzilma rivojlanishi va ta‘lim tizimidagi yangilanishlar haqida so‘z yuritiladi. Maqolada mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun dolzarb bo‘lgan tarmoq va sektorlar belgilab o‘tiladi va ularni qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatining kengayishi uchun innovatsion yondashuvlar va yangi iqtisodiy modellar taklif etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik, hududlar, mexanizm, mintaqqa, xizmatlar sohasi.*

I. KIRISH

O‘zbekistonning hududiy rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda yuzaga kelayotgan talab va ehtiyojlarga javob berish, shuningdek, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatining mustahkamlanishi, xususiy sektorga kirishning osonlashishi, ish o‘rinlarining yaratilishi va raqobatbardosh iqtisodiyotning shakllanishi kabi omillar muhim o‘rin tutadi.

II. METODLAR

Siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida yangi O‘zbekistonning paydo bo‘lishi tadbirkorlik uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratdi. Xususiy sektor rivojiga e‘tibor kuchayib borayotganligi sababli tadbirkorlik iqtisodiy o‘shish va yangi ish o‘rinlari yaratish katalizatori sifatida e‘tibor qozondi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Startaplarga kapital va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishni ta‘minlash uchun moliyaviy yordam dasturlari joriy etildi. Infratuzilmani rivojlantirish tashabbuslari shahar markazlari o‘rtasidagi aloqani yaxshiladi, biznes faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratdi. Bundan tashqari, siyosatdagi islohotlar byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, tartibga solish tartib-qoidalarini soddalashtirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan. Ushbu yutuqlarga qaramay, tadbirkorlar hali ham ularning o‘shish salohiyatiga to‘sqinlik qiladigan muammolarga duch kelishmoqda. Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi ko‘plab startaplar, xususan, yirik shaharlardan tashqarida yoki yuqori xavfli sektorlarda faoliyat yuritayotganlar uchun muhim to‘siq

bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlagan holda ma‘muriy jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali soddalashtirishga harakat qilish kerak.

Mazkur tadqiqot jarayonida kvantitativ va sifatli tadqiqot usullarining integratsiyasi, shuningdek, komparativ tahlil va analitik metodlar ishlatildi. Tadqiqot metodlarining tanlanishi mintaqaviy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini chuqurroq va kengroq o‘rganishga imkon berdi.

III. ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqa hududlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar ko‘plab mamlakatlarda olib borilgan. Ushbu bo‘limda O‘zbekiston va xorijiy tajribada tadbirkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid mavjud adabiyotlar tahlil qilindi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi ahamiyatiga e‘tibor qaratilgan ilmiy ishlar ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mintaqaviy iqtisodiyotda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi ko‘plab tadqiqotlarda alohida ta‘kidlangan. Xususan, Zahra R. et al. (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta‘siri, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni yaratishdagi o‘rni o‘rganilgan. [7] Tadqiqotda soliq imtiyozlari, kreditlash tizimlari va hukumat dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi tahlil qilingan. Xuddi shunday, Sullivan, A. (2000) tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlikni, shuningdek, hukumatning kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini ko‘rib chiqadi. [13]

Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish uchun Porter M. (1990) tomonidan ishlab chiqilgan “Klasterlar” kontseptsiyasi muhim ahamiyatga ega [11]. Uning fikricha, iqtisodiy hududlarda klasterlar (ya‘ni, bir-biriga yaqin joylashgan, o‘xshash sanoatlar) o‘rtasidagi raqobat va hamkorlik tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar, shu jumladan Mayer J. (2015) va Glaeser E. (2000) tomonidan olib borilgan ishlar, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda infratuzilmaning, innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi tizimlarning, ta‘lim va malaka oshirishning ahamiyatini ko‘rsatgan. [9;6]

O‘zbekistonning mintaqaviy rivojlanishiga oid ishlar, jumladan Muminov Sh. (2020) va Pirov M. (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. [10;12] Ushbu tadqiqotlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik va o‘rta biznesning o‘rni, davlat tomonidan taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va kreditlash tizimining samaradorligi haqida keng qamrovli ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Yuqoridagi tadqiqotlarda tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning ahamiyati alohida ta‘kidlangan. Brynjolfsson E., & McAfee A. (2014) "The Second Machine Age" asarlarida raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektning iqtisodiy tizimlarga bo‘lgan ta‘sirini tahlil

qilgan. [5] Ushbu texnologiyalarni tadbirkorlikni rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Shane S. (2009) esa innovatsiyalar va tadbirkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, yangi texnologiyalarni joriy etishning raqobatbardosh iqtisodiyot yaratishda qanday muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. [15]

Audretsch D.B. (2007) tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha Yevropa va AQSh tajribalarini tahlil qilib, samarali davlat siyosatlari, tadbirkorlik madaniyati va innovatsion yondashuvlar orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligini ko'rsatgan. [3] Lundvall B.-Å. (2007) esa innovatsion tizimlarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilgan va bu tizimlarni tashkil etishning mintaqaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi muhimligini ta'kidlagan. [8]

Mintaqaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishning istiqbolli yo'llari bo'yicha ilmiy ishlar mavjud. Acs Z. J., & Audretsch D. B. (2003) tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatlarining rolini ko'rib chiqib, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, grantlar, kreditlash tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaganlar. [4] Stam E., & Bosma N. (2015) tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim omillari sifatida innovatsiyalarni rivojlantirish, infratuzilma va ta'lim tizimini qayta qurish zarurligini ta'kidlaganlar. [14]

IV. NATIJALAR

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish va salohiyatni oshirish ustunlariga tayanadi. O'zbekiston hukumatining siyosat va tashabbuslarni hayotga tatbiq etishda faol yondashuvi tadbirkorlarning ravnaq topishi uchun qulay sharoit yaratdi. Moliyaviy resurslar va malaka oshirish imkoniyatlari bilan ta'minlangani bu ekotizimni yanada mustahkamladi. Biroq, yangi O'zbekistonning tadbirkorlik landshaftida barqaror o'sish va farovonlikni ta'minlash uchun ushbu qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini doimiy ravishda baholash va takomillashtirish zarur [16]. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida»gi PF-5780-son Farmonida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish hamda kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, xotin-qizlar va yosh avlod tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi dasturlarda davlat resurslaridan oqilona foydalanish, ularning maqsadlilikini ta'minlash va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5242-son, 2018 yil 2 fevraldagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5325-son va 2018 yil 27 iyundagi «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5466-son farmonlari, 2018 yil 26 apreldagi «Fermer,

dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3680-son, 2018 yil 7 iyundagi «Har bir oila - tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi PQ-3777-son, 2018 yil 14 iyuldagi «Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3856-son va 2019 yil 7 martdagi «Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4231-son qarorlari bilan respublikada kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, aholining o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirish, ayollar uchun imkoniyatlarni oshirish va yosh avlodni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan” [18].

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma‘lumotlari bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2018 yilda 18 804 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib, 30 327 taga yetgan yoki 2018 yilga nisbatan 11 523 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan kichik korxonalar soni 2018 yilning yanvar-dekabrda 28 154 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 43 910 ta yoki 15 756 taga oshgan. O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018 yilning yanvar-dekabrda 3 618 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, 6 052 tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2018 yilning yanvar-dekabrda nisbatan 2 434 taga oshgan. Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma‘lumotlariga ko‘ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018 yilning yanvar-dekabrda 37,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilning yanvar-dekabrda esa 37,8 % ga yetgan yoki 2018 yilning yanvar-dekabrda nisbatan 0,6 % ga ko‘paygan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018 yilda 55,7 % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 54,7 % yoki 1,0 % ga kamaygan. [17]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 mart PF-5690-sonli farmoniga muvofiq tadbirkorlik sub‘yektlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, ularning faoliyatida qonuniylikni ta‘minlash, respublikada investitsiya iqlimini va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish va nazorat kiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning qonuniyligi ustidan nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi tadbirkorlik sub‘yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil tomonidan amalga oshirilishi belgilandi [18].

Besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini

transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi: [1]

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash;
- ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqildi. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarmaydi deb baholagan korxonalarining soni 2018 yilda 14 318 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 37 019 ta yoki 22 701 taga oshgan. O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018 yilda 938 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 2 612 tani tashkil etib, 1 674 taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 57,6 % ni, sanoatda - 55,6 % ni va qurilishda - 55,0 % ni tashkil etdi. Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi sanoatda - 8,6 % ni, qurilishda - 8,1 % ni va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 7,9 % ni tashkil etdi.


2023 yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini yaxshilangan deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qurilishda - 51,3 % ni, savdoda - 50,2 % ni va sanoatda - 49,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 48,7 % ni, xizmatlar sohasida - 47,4 % ni va sanoatda - 46,5 % ni tashkil etdi. Yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi sanoatda - 3,7 % ni, xizmatlar sohasida - 3,7 % ni, qurilishda - 3,5 % ni tashkil etdi.

Hududlarda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda biznes va boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi qarorlarni qabul qilinishida ularning fikrini to‘laroq hisobga olish

muhim hisoblanadi. Ana shu yo‘nalishda ishlarni jadallashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

1) Hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga va tadbirkorlik sub'yektlarining huquqiy savodxonligini oshirishga ko‘maklashuvchi nodavlat institutlar sifatida biznes-uyushmalarning rolini kuchaytirish;

2) Hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish maqsadida ishbilarmonlik hamjamiyatini davlat va nodavlat boshqaruv tashkilotlari bilan konstruktiv muloqotini yo‘lga qo‘yish uchun O‘zbekiston ishbilarmonlik doiralari vakillari, xorijiy sarmoyadorlar, xalqaro moliyaviy institutlar va donor hamjamiyatlarni birlashtiruvchi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi jamoat tashkiloti biznes-forumni tashkil etish.



Rasm. Biznesga ishonch muhitini baholash [17]

Tadqiqot davomida olingan natijalar O‘zbekistonning mintaqaviy hududlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini va bu mexanizmlarni takomillashtirish uchun istiqbolli yo‘llarni aniqlashga qaratilgan. Natijalar kvantitativ va sifatli ma‘lumotlar tahlili asosida olingan bo‘lib, quyidagi asosiy jihatlar yuzasidan keltirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning mintaqaviy hududlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun bir qator istiqbolli yo‘llar mavjud. Ushbu mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun moliyaviy resurslarni kengaytirish, soliq siyosatini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash zarur. Buning uchun hukumat, biznes va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

V. MUHOKAMA

Yuqorida aytib o‘tilganidek, so‘nggi yillarda hunarmandchilik faoliyatini yanada rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan institutsional-huquqiy bazasi ham

takomillashtirilib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17 noyabr 2021 yildagi PF-5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bunga asos bo‘la oladi. Farmonga muvofiq hunarmandchilikni rivojlantirishdan asosiy maqsad: O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an‘analarini tulik saqlab qolish va ko‘paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san‘atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash buyicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta‘minlangan oilalar bandligini ta‘minlash hisoblanadi [18]. Hunarmandchilikning yuqori talabga ega va kelajakda rivojlanish istiqboli bor turlarini to‘liq qamrab olish maqsadida Farmon bilan hunarmandchilik faoliyati asosiy yo‘nalishlarining yangilangan ro‘yxati Bunga ko‘ra, hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan buyum va tovarlar (ish, xizmatlar) turlarining yangilangan ro‘yxati taqdim etilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida hunarmandchilikni 2018-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish yig‘ma dasturi, hamda shu yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishning manzilli hamda hunarmandchilik ob‘yektlarini tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi. Shunday ekan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyati rivojini qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi institutlarni yanada rivojlantirish va unga bog‘liq ravishda tranzaksiya xarajatlari tarkibini takomillashtirish iqtisodiy o‘shishni hamda mamlakat raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi” [19].

Hududlarda ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo‘lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko‘prok erkinlik berish, kichik biznes yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta‘minlash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi va istiqbolda rejalashtirilmoqda.

Jahonda o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda kichik biznes rivojini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish infratuzilmasini shakllantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining davlat moliyaviy, moddiy-texnik ishlanmalari va texnologiyalaridan foydalanishi uchun imtiyozli shart-sharoitlarni yaratish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarini ro‘yxatga olish, ular faoliyatini litsenziyalash, mahsulotlarini sertifikatlash, ular tomonidan statistika va buxgalteriya hisobotlari topshirilishining soddalashtirilgan tartibini belgilash

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining tashki iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan ularning xorijiy mamlakatlar bilan savdo, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, axborot aloqalari rivojiga ko'maklashish;

- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish va b.

Mamlakatimiz hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan:

- biznesni tugatishga imkon yaratuvchi, tadbirkorlik sub'yektlarini ixtiyoriy tugatish jarayoni joriy etildi;

- ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash tizimi soddalashtirildi;

- auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish mexanizmi ishlab chiqildi;

- texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarning soliq yuki kamaytirildi;

- sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirildi;

- tadbirkorlarni moddiy-texnika resurslarini mustahkamlash va erkin sotib olishiga qulay sharoit yaratishni kengaytirildi va bu sohaga bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolar o'z yechimini topdi.

“Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda. Shu bilan birga, aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqalari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda” [20]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda PF-29-sonli “Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi” Farmoniga asosan har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi lavozimi tashkil qilindi. [2]

O'zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning reytingini baholash tizimi joriy etildi, buning asosida iqtisodiy ko'rsatkichlar, biznesni qo'llab-quvvatlash muhiti, infratuzilma va mavjud resurslardan tuman va shaharlarda foydalanish darajasi o'rganildi. Hukumatning «Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasiga baho berish tizimini joriy etish chora-

tadbirlari to‘g‘risi» dagi qaroriga muvofiq (№8, 08.01.2020), 2020 yildan boshlab Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va Adliya vazirligi “Biznes indikatori” avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimini ishga tushirdi. «BUSINESS INDICATOR» (Biznes-ko‘rsatkichi) onlayn axborot tizimi orqali 2022 yilda O‘zbekistonning barcha hududlarida biznesni rivojlantirish darajasi o‘rganildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini hisoblash va baholashning onlayn tizimi mas‘ul tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan 25 ballik ko‘rsatkich bo‘lib, tadbirkorlarning 4 ta yo‘nalishdagi so‘rovlari hisoblanadi. Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish darajasini baholash yarim yillik va yil yakunlari asosida muntazam ravishda olib borilmoqda. O‘zbekiston 2016 yilga nisbatan biznes yuritishning iqtisodiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasida ulkan yutuqlarga erishdi. Davlatning (mintaqaviy) qo‘llab-quvvatlashi tadbirkorlikni rivojlantirish omillaridan biriga aylandi. Tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, xususan, soliqlar, kreditlar va kommunal to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar, tadbirkorlik sub‘yektlarini tekshirishlar bo‘yicha moratoriy hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish natijasida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ijobiy tendentsiyalar aniqlandi: so‘nggi uch yil mobaynida uzluksiz faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar sonining o‘shishini ko‘rsatdi, ularning soni 32,5% ga oshdi va tadbirkorlar umumiy sonining 26% ni (2019 yilda 21%) tashkil etdi. Bundan tashqari, tadbirkorlar ishtirokida xo‘jalik va ma‘muriy sudlarda ko‘rib chiqilgan nizolar 44% ga (97,6 ming, 2019 yilda 173,3 ming) kamaydi va tadbirkorlik sub‘yektlarini tekshirishlar soni 8,5% ga (52,3 ming, 2019 yilda - 57,2 ming) kamaydi.

Shunday qilib, tadbirkorlarning davlat oldidagi qarzdorligi majburiy ijroda 3,4 barobar oshdi (690 mlrd. so‘m, 2019 yilda 206 mlrd. so‘m). Shu bilan birga, tadbirkorlarning muddati o‘tgan kreditlar miqdori 63% ga (4,8 trln. so‘m 2019 yilda 3,0 trln. so‘m) oshdi. [19]

Tahlillarda bo‘sh turgan yerlardan samarali foydalanish darajasi 72% dan 37% gacha pasaygani aniqlandi. So‘rov natijalariga ko‘ra, 2020 yilda 25 mingdan ziyod tadbirkor 2019 yilga nisbatan bank xizmatlari, infrastruktura va davlat organlariga tadbirkorlarning ishonchi ortganini qayd etdi. Shu bilan birga, respondentlarning 44% majburiy homiylik bilan shug‘ullangan va 40% sud qarorlarining adolatiga shubha bilan qaragan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respublikamizning viloyat va tumanlaridagi shaharlar reytingi tuzildi. Baholash natijalariga ko‘ra, tadbirkorlikni rivojlantirishning eng yuqori darajasi Toshkent shahrida qayd etildi (7,8 ball). Eng past ko‘rsatkichlar Qashqadaryo (4,5 ball), Surxondaryo (4,5 ball) va Samarqand (4,6 ball) viloyatlarida qayd etildi. Bektemir (9,0 ball), Mo‘ynoq (8,9 ball), Qo‘rg‘ontepa, Yakkasaroy va Karmana (8,4 ball) tumanlari yetakchi bo‘ldi. Baxmal (6,3 ball), Buvayda (6,4 ball), Tuproqqal‘a, Uchko‘prik, Samarqand, Bekobod va Yangiyo‘l tumanlari (6,5 ball) reytingda so‘nggi o‘rinlarni egalladi. Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta‘minlashga qaratilgan e‘tibor natijasida Farg‘ona viloyatida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar, to‘qimachilik, kiyim-kechak, oziq-ovqat, charm va qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanada ortdi.

O‘zbekistonning mintaqaviy hududlarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari keng ko‘lamli tahlilni talab qiladi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mavjud mexanizmlar samaradorligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, bu mexanizmlarning takomillashtirilishi zarurati aniq belgilandi. Mintaqaviy hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlashini ta‘minlash uchun bir nechta muhim omillarni hisobga olish zarur.

1. Moliyaviy resurslar va kreditlash tizimi. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biri bu moliyaviy resurslarning mavjudligi va ularni taqsimlash tizimining samaradorligi. Tadqiqotda kreditlash tizimining o‘ta qattiq shartlari va yuqori foiz stavkalari kichik va o‘rta bizneslar uchun muammo bo‘lishi aniqlandi. O‘zbekiston hukumati tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar va soliq imtiyozlari ba‘zi hududlarda o‘zining samarali natijalarini ko‘rsatsa-da, umumiy resurs taqsimoti hali ham tengsizdir. Shu bois, moliyaviy resurslar va kreditlash tizimi adolatli taqsimlanishi, shuningdek, kichik va o‘rta biznes uchun qo‘shimcha imtiyozlar va soddalashtirilgan shartlar taqdim etilishi zarur.

2. Innovatsiyalar va texnologiyalarni qo‘llash. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqotda, innovatsiyalarni qo‘llash va raqamli iqtisodiyotning ahamiyati aniqlangan bo‘lib, bu sohada hali ham muammolar mavjud. Mintaqaviy hududlarda startaplar va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma, ilmiy tadqiqotlar va texnologik qo‘llab-quvvatlash resurslari yetishmayapti. Shu bilan birga, mintaqaviy tadbirkorlarning yangi texnologiyalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari va motivatsiyalari past bo‘lishi mumkin.

3. Ta‘lim tizimi va kadrlar tayyorlash. Mintaqaviy hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishda ta‘lim tizimining roli katta. Tadqiqotda, malakali kadrlarning yetishmasligi va o‘quv dasturlarining amaliyotga mos kelmasligi mintaqaviy tadbirkorlikning o‘shishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. Kadrlar tayyorlash tizimi bugungi kunda ko‘plab hududlarda yetarli darajada rivojlanmagan va yoshlarni tadbirkorlikka o‘rgatish, ularga zarur bilim va ko‘nikmalarni berish zarurati sezilarli.

4. Iqtisodiy infratuzilma va logistika. Hududiy iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanishi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, transport va kommunikatsiya tarmoqlarining yaxshilanishi, logistika tizimining samarali tashkil etilishi tadbirkorlar uchun yangi bozorlar ochish va mahsulotlar va xizmatlarni samarali yetkazib berish imkoniyatlarini yaratadi. Mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishida transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangi bozorlarni ochish, shuningdek, eksport-import jarayonlarini soddalashtirish muhimdir.

5. Tadbirkorlik madaniyati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning kuchayishi mintaqaviy iqtisodiyotning mustahkamlanishida muhim omil bo‘lishi mumkin. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati oshib bormoqda.

Mintaqaviy hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy infratuzilma, moliyaviy tizimlar, ta‘lim tizimi va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish zarur. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun samarali mexanizmlarni yaratish, davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlash, yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish O‘zbekistonning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

VI. XULOSA

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bir iqtisodiy tizimdan boshqa iqtisodiy tizimga o‘tish davrida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan biriga aylanadi. Bu - respublika uchun strategik ahamiyatga egadir. Mintaqada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri eksportga yo‘naltirilgan, jahon bozorida raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini ustun darajada rivojlantirish asosida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdir. Viloyat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad jahon iqtisodiyotining globallasuvi va integratsiyalashuvi jarayonidan olinadigan foydani ko‘paytirish va tavakkalchilikni kamaytirish bo‘lib hisoblanadi. U mintaqani tashqi va ichki bozor talablaridan kelib chiqqan holda asta-sekin xom ashyo eksport qiladigan mintaqadan uni to‘la tugallangan ishlab chiqarish tsikliga ega bo‘lgan, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradigan va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan.

Mintaqaviy hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mavjud mexanizmlarning samaradorligi mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ammo ularning yanada takomillashtirilishi zarur.

Shu bilan birga, iqtisodiy infratuzilma va logistika tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, eksport-import jarayonlarini soddalashtirish mintaqaviy tadbirkorlarning imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi bozorlar ochish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ham mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijada, mintaqaviy hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuvning asosiy yo‘nalishlari moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ta‘lim tizimini takomillashtirish va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘zbekistonning mintaqaviy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sish uchun bu mexanizmlar samarali va innovatsion tarzda ishlashini ta‘minlash zarur.

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://mitc.uz/uz/news/3680>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. 2021 yil 3 dekabr, PF-29-son [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://lex.uz/uz/docs/5758437>.
3. Audretsch D. B. The Entrepreneurial Society: A Review of the European and U.S. Experience. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 256 p.
4. Acs Z. J., Audretsch D. B. Handbook of Entrepreneurship Research: An Interdisciplinary Survey and Introduction. – Boston: Kluwer Academic Publishers, 2003. – 562 p.
5. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 320 p.
6. Glaeser E. The importance of education and skills in regional economic development // Journal of Economic Geography. – 2000. – Vol. 1, No. 1. – P. 1-20.
7. Zahra R., Ali A., Zaman K. The impact of entrepreneurship on economic development: An analysis of the role of tax incentives, credit systems, and government programs in fostering entrepreneurship and social stability // International Journal of Economic and Social Studies. – 2014. – Vol. 10, No. 2. – P. 45-58.
8. Lundvall B.-Å. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. – London: Pinter Publishers, 2007. – 320 p.
9. Mayer J. The role of infrastructure in regional economic development: The importance of innovation systems and education // Journal of Regional Development. – 2015. – Vol. 22, No. 3. – P. 45-60.
10. Muminov Sh. O'zbekistonning mintaqaviy rivojlanishi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari: Nazariy va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot institutining nashriyoti, 2020. – 278 b.
11. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
12. Pirov M. Tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarining mintaqaviy xususiyatlari va ulardan foydalanish strategiyalari // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2019. – No. 27(2). – P. 34-45.
13. Sullivan A. Entrepreneurship development: The role of government and business sector collaboration in supporting small and medium-sized enterprises // Journal of Business and Economics. – 2000. – Vol. 15, No. 3. – P. 72-85.
14. Stam E., Bosma N. Innovation, Infrastructure, and Education: Key Drivers for Entrepreneurship Support // Entrepreneurship and Regional Development. – 2015. – Vol. 27, No. 9-10. – P. 642-661.
15. Shane S. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Free Press, 2009. – 350 p.

16. Yavmutov D.Sh., Xomidov X.A. Yangi O'zbekiston sharoitida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari // Uzbek Scholar Journal. – 2023. – Vol. 18, July. – P. 34-39. – Rejim kirish: www.uzbekscholar.com.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy ko'rsatkichlari. 2023 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.

18. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi [Elektron resurs]. – Rejim kirish: www.lex.uz.

19. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://uza.uz/uz/posts/unarmandchilikni-yanada-rivozhlantirish-va-unarmandlarni-lla-30-11-2019>.

20. O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-samarasi>.

21. Review.uz [Elektron resurs]. – Rejim kirish: <https://review.uz/>.